

# Yoshlarni Innovatsion Faoliyatga Jalb Etishning Tashkiliy-Iqtisodiy Mexanizmlarini Takomillashtirish

*Ismatullayev F. R.<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Mazkur maqola bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan innovatsion faoliyat va unga yoshlarni jalb etishni takomillashtirishga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada bugungi kun yoshlari uchun yaratilinayotgan imkoniyatlar ,hususan, "Start up", "TexnoWays" kabi loyihalarning tashkil etilishi, "Yoshlar akademiyasi"ning faoliyat boshlashi va uning yoshlarga yaratajach Imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** "innovatsiya", islohat, "nou-xau" va "aqlii" texnologiyalar, "Start up", "TexnoWays", Yoshlar akademiyasi, "Bo'lajak olim".

"Yangi O'zbekiston", "Uchinchi renesans" atamalarining kundalik hayotimizga kirib kelishi yurtimizda rivojlanishning yangi bosqichi boshlanganligidan guvohlik beradi. Binobarin, yetuk aqlga ega har qanday inson avvalgi va keyingi kunlarni taqqoslagan holda amalga oshirilgan islohatlarning natijalarini ko'ra oladi. Kishini hursand qiladigan jihat shundaki, bugungi kun islohatlar markazida yosh avlodni har tamonlama qo'llab – quvvatlash, ularni ma'nан yetuk, barkamol qilib voyaga yetkazishga qaratilganligidir. Bu esa o'z o'rniда vatanimiz kelajagi farovonligini ta'minlash bilan barobardir. Zero, yoshlar kelajak poydevorlari. Poydevori mustahkam inshoat har qanday to'siqqa dosh bera oladi. Zamona viy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. O'tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakkllantirildi. Bundan bir necha yil oldin "innovatsiya" so'zi ko'pchilik uchun notanish tushuncha edi.[1] Xorijdan kirib kelib, qulog'imizga tez-tez chalina boshlagan bu atamani ahyon-ahyonda qo'llay boshladik.

Ammo ko'p o'tmay — Yangi O'zbekiston islohotlari avvalida rivojiana boshlagan zamona viy texnologiyalar va bilimlar sabab bugun "innovatsiya" til lug'atimizdagi asosiy so'zlardan biriga aylandi. Hozirgi dunyoda innovatsion taraqqiyot modellarini joriy etish, ilg'or g'oyalalar, "nou-xau" va "aqlii" texnologiyalarni eksport qilish hisobidan tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlar soni tobora ortib boryapti. Tan olishimiz kerak, ma'lum muddat mamlakatimizda bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli bo'lmadi. SHu bois, davlatimiz rahbari o'z lavozimiga kirishgan dastlabki yillardanoq bu yo'lidi dolzarb muammolarni hal etishga qat'iy chog'landi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Innovatsiya — bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". Bu so'zlar amalda ham o'z isbotini topa boshladik. Harakatlar strategiyasida aynan innovatsiyalar masalasiga alohida urg'u berildi. Xususan, unda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Oxirgi 3-4 yil ichida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu mubolag'a emas, aksincha, shu kunlarni orzu qilgan bir yigit tilidan chiqayotgan shukronalik so'zları, xolos. Axir, qachon o'z g'oyasi, loyihasiga ega yigit-qizlar vazirlik darajasida qo'llab-quvvatlangan, ular uchun turli tanlovlardan tashkil etilgan? Bugun bu ishlar odatiy holga aylandi. [3] Yoshlar "Startup", "TexnoWays" singari yirik texnologik rivojlanish marafonlarida o'z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etyapti. Grantlar g'olibiga aylanib, ishlanmalarini foydali qurilmalarga aylantriyapti. Ana shunday yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida birinchilardan bo'lib "Yoshlar akademiyasi" tashkil etildi. Tuzilma qisqa vaqtida innovatsion loyihasalar va g'oyalarga ega iqtidorli yoshlar, talabalar hamda 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlarni birlashtiradigan, ularni har tomonlama rag'batlantiradigan maydonga aylandi. Akademiyaga o'z jamoasi, ilmiy ishlanmasi, g'oya yoki startap loyihasalariga ega 40 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar qabul qilinadi. Yosh ixtirochilar bu yerda "G'oyalalar generatorlari", "Startaplar", "Biznes vakillari" hamda "Bo'lajak akademiklar" kabi 4 ta platformadan birida faoliyat yuritishi mumkin.

Ayni paytda Yoshlar akademiyasining 2 mingga yaqin a'zosi bor. Ular geologiya, matematika, fizika, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, sog'liqni saqlash, ta'lim, sun'iy intellekt, robototexnika va mexatronika, dasturlash, 3D modellashtirish va boshqa yo'nalishlarda o'z loyihasalarini amalga oshirib kelmoqda. A'zolar orasida innovatsion va amaliy ishlanmalarini hayotga tatbiq etib, muayyan soha rivojiga hissa qo'shayotgan faol va tashabbuskor jamoalar ko'pchilikni tashkil etadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi nuniversiteti kursanti

Bugun ular tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab loyihalar hayotimizga keng joriy etilmoqda. Xususan, ayni paytda turli sohalarda foydalilanayotgan, tug'ma qo'ltsiz va hayoti davomida qo'li amputatsiyaga uchragan nogironlar uchun bionik protezlar, o'pkani sun'iy shamollatish apparatlari uchun maxsus oksigenatsiya niqoblari, kiyimlar, bolalar o'yinchoqlari va boshqa uy-ro'zg'or buyumlaridagi bakteriya va hidrlarni bartaraf etishga mo'ljallangan "CleanBox" qurilmasi, avtomobillar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Carwon smart security system" mobil ilovasi, maishiy chiqindilar asosida sun'iy uglerodlashtirilgan material olish qurilmasi, rangli metall buyumlar quyish uchun vakuum asosida ishlaydigan "Humo S1" uskunasi, "Sky project" virtual parashyut simulyatori va boshqa bir qancha ixtiolar o'zbek yigit-qizlari, xususan, "Yoshlar akademiyasi" a'zolari tomonidan yaratilgani bizni quvontiradi.[4]

Bugun respublikamizning har bir viloyatida akademianing yetakchisi saylanib, iqtidorli yoshlar jamoalari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar saralab olinyapti. O'tgan qisqa vaqt ichida ana shunday yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash, akademiya a'zolarini rag'batlantirish, istiqbolli ishlanmalarga ega yoshlarga motivatsiya berish maqsadida bir qator yo'nalishlarda amaliy, innovatsion va startap loyihalar tanlovlari o'tkazib kelinyapti. Ayniqsa, Prezidentimizning joriy yil aprel oyidagi qarori bilan tashkil etilgan "Bo'lajak olim" tanlovi doirasida yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihalariga 50 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi yigit-qizlar uchun katta imkoniyat bo'ldi. "Yoshlar akademiyasi" tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarning aksariyati hududlarda o'g'il-qizlarning intellektual, ilmiy, ijodiy salohiyatini oshirish, ularni jamiyatda olib borilayotgan islohotlarning faol yetakchilariga aylantirishga qaratilgan. Ana shu maqsadda hukumat qarori bilan bugun respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich Yoshlar texnoparklari tashkil etilyati. Chekka hududlarda istiqomat qiladigan yigit-qizlarni mamlakatimiz rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan soha va yo'nalishlar bo'yicha o'qitishga qaratilgan "Texnobus" innovatsion ta'lif avtobusi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xulosa o'rnda shuni ta'kidlashimiz joizki, bugun yurtimiz aholisining 60 foizini tashkil etadigan yoshlar orasida iqtidorlilar ko'p. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zamirida esa mustaqil, o'z g'oyalari bilan yurtimiz va jahon maydonida munosib o'ren egallay oladigan shaxslarni tarbiyalash yotadi. Zero, ana shunday yoshlar Yangi O'zbekiston kelajagini bunyod etish yo'lida shahdam qadam tashlashni boshladi. Yoshlar masalasi davlat ahamiyatiga ko'tarilganligi prezidentimizning farmon va farmoyishlaridan ham ko'rishimiz mumkin. "Yosh tadbirdor, "Yosh kitobxon", "Yoshlar daftari" va yuqorida nomlari keltirilgan "Startup", "TexnoWays" mazkur loyihalarning barchasi o'z zamirida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, iste'dodlarini namoyish qilishga imkon yaratish, moddy va ma'naviy tamondan qo'llab quvvatlashni maqsad etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Fatxutdinov R.A. Innovatsiyalarni boshqarish: universitetlar uchun darslik. - 6-nashr. - Sankt-Peterburg: Peter, 2011. - 448 p.
2. <https://yuz.uz/uz/news/innovatsiya--biz-yoshlarni-kelajakni-yaratishga-ruhlantirmoqda>.
3. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
4. Sulaymonov J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R. 10.
5. Sulaymonov J.Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
6. Mardonova A. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. Samarcand, 2021. 208 b.